

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI**  
**(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)**

761 / 122-LS – sonli

25 Avgust 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi direktor o'rinbosari **K.Ximmatkulov** bir tomondan va **YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ** (Keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi **D. Axmedov** ikkinchi tomondan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK xarid komissiyasining 23.08.2022 yildagi 35729-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: **Bulung'ur tumani Yangiobod MFY A.Navoiy ko'chasi va bog'bonlar ko'chalarini joriy ta'mirlash (1-2-3 uchastkalar) bo'yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish** belgilangan norma va qoidalarga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

**2. SHARTNOMA BAHOSI**

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan **8 200 571 (sakkiz million ikki yuz ming besh yuz yetmish bir) so'mni** tashkil qiladi.

**3. TO'LOV TARTIBI**

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-lovda ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

**4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarini ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblarni asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning rozilgisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatli bajarib, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

**5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioya qilingan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlar va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning rozilgisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

**6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlar bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

**7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH**

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy hodisalar va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

## 10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekti bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iqtisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrigacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

## TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

### “BUYURTMACHI”

Nomi: “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AK1B “Ipoteka bank”

L/s: 304521860184017045990118992

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED: 70220

Direktor o'rinbosari: K. Ximmatkulov



### “BAJARUVCHI”

Nomi: “YO'L LOYIHA TARAQQIYOT” MCHJ

Manzili: Toshkent sh, Olmazor tumani Beruniy 2-uy 15-xona

Bank nomi: “Ipoteka bank” Olmazor filiali

X/R: 2020 8000 8053 2414 5001

MFO: 00901

STIR: 306 713 958

OKNX: 46-120

Direktor: D. Axmedov



Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarining shakllantirilishiga nisbatan tadbir qilinmaydi.

Yurist: G. G'uliyeva

Yurist: \_\_\_\_\_

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010

Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160

Tel 2335853, 231-11-52

Ro'yxatga olindi. K. Ximmatkulov



**BAYONI**

Samarqand shahri  
Raislik qiluvchi

K.Ximmatkulov

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Sultanmuradov Elyor  
Erkinovich

Komissiya raisi o'rinbosari Bosh muhandis

Maxmudov Sherzod  
Ulug'bekovich

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Bekmirzayev Azim  
Xasanovich

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Abduraimov Sobir Mamarajabovich  
Narmatov Xurshid Umrbyeovich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'lim boshlig'i,  
Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

**KUN TARTIBI:**

Kun tartibidagi masala yuzasidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK direktori S.Mamatkulov so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quyidagi

- |  |  |
|--|--|
| 1. Samarqand shahar Mendeleyev ko'chasi  | 2. Samarqand shahar Ilmobod MFY 6-proyezd ko'chasi                 |
| 3. Samarqand shahar Ziyokorlar mfy Al-Xorazmiy ko'chasi  | 4. Samarqand shahar Panjob MFY Almedov 1-ko'chasi                  |
| 5. Samarqand shahar Xo'jagunjoyish MFY Bogirohat 2-ko'chasi                                      | 6. Samarqand shahar Bunyodkor MFY gulobod 5-ko'chasi               |
| 7. Samarqand shahar Kushxavuz MFY Kushxavuz ichki ko'chasi                                       | 8. Samarqand shahar Qoziariq MFY ichki ko'chalarini                |
| 9. Samarqand shahar Imom Vose MFY Imom Vose ko'chasi   | 10. Kattaqo'rg'on tuman Yakkabog MFY Bogidilkusho ko'chasi         |
| 11. Samarqand tuman Diyor MFY Bog'ibaland ko'chasi   | 12. Samarqand tuman Safedi MFY Firot ko'chasi                      |
| 13. Bulung'ur tuman Yangi obod MFY A.Navoiy ko'chasi va bog'bonlar ko'chalarini (1.2.3 uchastka) | 14. Oqdaryo tuman A.Temur MFY Chilla ota qabristoniga borish yo'li |
| 15. Samarqand tuman Yangi joy MFY ichki ko'chasi   | 16. Samarqand tuman Kovchinon MFY ichki ko'chasi                   |
| 17. Samarqand tuman Bo'zi MFY Botanika bog'iga borish ko'chasi                                   | 18. Samarqand shahar Charmgari MFY Amur ko'chalarini               |

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

(Sultanmuradov E, Sh.Maxmudov, S.Abduraimov, A. Bekmirzayev,)

"Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan 2022 yil 13 avgust O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 23 Avgustdagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakillangan bayonnomasiga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib.

**YIG'ILISH QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyektlar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomalar bo'yicha hech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i X.Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 23 avgustdagi elektron bayonnomalariga asosan "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MChJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i A.Bekmirzayev, tanlov g'olibi "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini SHNQ va QMQga mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

**Komissiya a'zolari**

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Sultanmurodov Elyor Erkinovich		Korxonada bosh muhandisi
Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich		Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i
Bekmirzayev Azim Xasanovich		Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i
Abduraimov Sobir Mamarajabovich		Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i
Narmatov Xurshid Umrbyeovich		Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i